



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 15-iyul, chorshanba,
62 (24.242)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Yolg'iz
yurib yo'l
topguncha,
ko'p bilan
yurib adash

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz




info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



Samarqandda “BIRODAR SHAHARLAR XALQARO FORUMI” o'tkaziladi

Shu yilning 24-25-iyul kunlari qadimiy kentda o'tkazilishi rejalashtirilgan forumda 30 dan ortiq davlat vakillari, nufuzli delegatsiyalar va xalqaro tashkilotlar mas'ullari qatnashishi kutilmoqda.

Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita, Birodar shaharlar alyansi va viloyat hokimligi tomonidan tashkil etilayotgan forum O'zbekiston va xorijiy davlatlarning birodar shaharlari o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlash, xalq diplomatiyasi tamoyillari asosida madaniy-gumanitar, iqtisodiy, ta'lim, ilm-fan, turizm va innovatsiya yo'nalishlarida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Laziza MIRZARAHIMOVA.

TEST

SINOVLARI BOSHLANDI



Kecha respublikamizning barcha hududlarida 2026-2027-o'quv yili uchun davlat oliy va kasbiy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari boshlandi. Xususan, bu yil viloyatda 71848 nafar abituriyent imtixon topshiradi.

Samarqanddagi kirish imtihonlari oltita binoda bo'lib o'tmoqda. Jumladan, viloyatimizda bir navbatda 4110 o'rin joy tayyorlangan.

Test sinovlari har kuni ikki navbatda:

1-NAVBAT — 08:00 dan 11:00 ga qadar;

2-NAVBAT — 15:00 dan 18:00 ga qadar bo'lib o'tadi.

Bunda abituriyentlar test sinovi o'tkaziladigan hududga test sinovi boshlanishidan kamida bir yarim soat oldin pasport (ID-karta) va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari lozim.

Abituriyentlarga test imtihonlari bo'ladigan binolarni salqinlatish uchun konditsionerlar o'rnatilgan, 0,5 hajmdagi ichimlik suvlari va ko'k sharikli ruchka bilan ta'minlangan.

Test sinovlari jarayonlari to'liq videokuzatuv ostida va onlayn translyatsiya qilish orqali o'tkaziladi. Onlayn translyatsiya test2026.uz sayti orqali amalga oshiriladi.

**Prezidentimiz tomonidan
cho'llanishga qarshi kurashish,
cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish
hamda shaharlarda “yashil
shahar” tamoyillarini joriy etish
bo'yicha belgilangan ustuvor
vazifalar mamlakatimizda
ekologik xavfsizlikni ta'minlash
va barqaror taraqqiyotga
erishish yo'lidagi muhim qadam
bo'ldi.**

Bugungi iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlar degradatsiyasi va cho'llanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ekologik muammolarga zamonaviy va uzoq muddatli yondashuvni namoyon etadi.

Ayniqsa, cho'l hududlarini faqat ekologik muammo sifatida emas, balki iqtisodiy salohiyatga ega hudud sifatida baholash, “cho'l iqtisodiyoti” konsepsiyasini ishlab chiqish, galofit o'simliklar yetishtirish, yaylovlar samaradorligini oshirish, ekologik turizmni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash

Yashillik ko'payadi, daromad oshadi

mamlakatimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ushbu islohotlar jarayonida Samarqand shahrini ekologik toza harakatlanish modeliga o'tkazish nazarda tutilganligi barchamizni mamnun etdi. Yangi modelga ko'ra, 50 ta katta sig'imli elektrobust xarid qilish, chorahalarda 150 ta yangi svetofor o'rnatish, 2030-yilga qadar jamoat transporti va taksi xizmatini to'liq elektr transportiga o'tkazish choralari ko'riladi.

Shaharda maxsus ekologik-shaharsozlik rejimi joriy etilib, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan obyektlar uchun “yashil qurilish” talablari majburiy etib belgilandi. Bunda energiya va suv tejankor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, resurs samaradorligini oshirish hamda ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni foydalanishga qabul qilmaslik amaliyoti yo'lga

qo'yiladi.

Loyiha 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan. Uning maqsadli ko'rsatkichlari qatoridan atmosferaga chiqarilishi mumkin bo'lgan 51,2 ming tonna zararli tashlamalarning oldini olish, sanoat va energetika obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish orqali PM2,5 va PM10 zarrachalarini 50 foizga kamaytirish, qurilish obyektlaridan chiqadigan chang miqdorini 80 foizga, transport vositalaridan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar hajmini 50 foizga qisqartirish, chiqindi poligonlari hajmini 2 barobar kamaytirish hamda aholi yashash punktlarida yashil hududlar ulushini o'rta-cha 30 foizga yetkazish o'rin olgan.

Loyihani amalga oshirish uchun shaharsozlik, ekologiya, transport, qurilish, turizm, sanoat va kommunal xo'jalik sohalaridagi tadbirlarni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanuvchi «Yashil Samarqand» loyiha ofisi tashkil etiladi.

Samarqand shahrida loyiha doirasida 300 gektar maydonda “Gren Citi Samarqand” hududini barpo etish rejalashtirilgan bo'lib, u yerda uy-joylar, ofislar, turistik va jamoatchilik obyektlari xalqaro «yashil shahar» standartlari asosida quriladi.

Shaharda maxsus ekolog-shaharsozlik rejimi joriy etiladi. Unga ko'ra, yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan obyektlar uchun energiya va suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni saralash hamda qayta ishlashni o'z ichiga olgan “yashil qurilish” talablari majburiy etib belgilanadi. Ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlar foydalanishga topshirilmaydi.

Yangi katta halqa yo'li bo'ylab uzunligi 102,7 kilometr, maydoni 3532 gektar bo'lgan “yashil belbog” yaratish taklif etilmoqda. U havoning changlanishi va haroratini pasaytirish, shuningdek, shahar atrofida tabiiy himoya sifatida xizmat qilishi lozim.

Chiqindilarni saralash va qayta ishlashni, shuningdek, chiqindilarni noqonuniy tashlash holatlarini qayd etuvchi raqamli tizimni o'z ichiga olgan “Zero Waste Samarkand”

► **Munosabat**

konsepsiyasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimiz hududining qariyb 80 foizi cho'l va yarim cho'l maydonlaridan iborat ekanini, Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy va Xorazm kabi hududlarda sho'rlanish, qum ko'chishi va chang bo'ronlar aholi salomatligi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita tahdid solayotgan sharoitda davlatimiz rahbarining ushbu masalani strategik darajaga ko'tarishi partiyamiz saylovoldi dasturida ilgari surilgan g'oyalarning amaliy ifodasidir.

O'zbekiston Ekologik partiyasi mazkur tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Qabul qilinadigan qonunchilik tashabbuslarini takomillashtirish, parlament va mahalliy kengashlar orqali ijrosi ustidan samarali jamoatchilik va deputatlik nazoratini ta'minlashda, ekologik madaniyatni yuksaltirish hamda fuqarolarning ekologik tashabbuslarini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

**Xo'jaqi MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston Ekologik
partiyasi viloyat kengashi
ijroiya qo'mitasi raisi.**



Samarqandda 30 dan ortiq maxsus
texnika daraxt va ko'chatlarni
sug'orish ishlariga jalb etildi



Yangi ko'priklar qurilishi
davom etmoqda



Samarqand shahri atrofida
“yashil belbog”
barpo etiladi



Taxmina Ikromova Jahon
kubogida ikkita bronza medalni
qo'lga kiritdi

TOG‘ BAG‘RIDAGI SAYYOHLIK MANZILLARI



Bir paytlar sarxil meva-sabzavotlari, mirishkor dehqon va bog‘bonlari bilan tilga tushgan Samarqand tumani bugun betakror sayyohlik manzillari orqali ham yurtdoshlarimiz va xorijlik sayyohlar e‘tiborini tortmoqda.

Tumanning tog‘ bag‘rida joylashgan Ohalik, Oqbo‘yra, Mironqul mahallalari, bir necha asrlik hunarmandlik an‘analarini asrab kelayotgan va shu tufayli yurtimizda birinchi turizm qishlog‘i maqomi berilgan Konigil qishlog‘i, tarixiy obida va muqaddas qadamjolari bilan mashhur Xo‘ja Ahrori Valiy majmuasi ayni chog‘da Samarqandning muhim sayyohlik nuqtalari hisoblanadi. Ayniqsa, go‘zal manzarasi va musaffo ta-

sion zonasi tashkil etildi, – **deydi Samarqand tumani hokimi Sirojiddin Usmonov.** – Hozirda mazkur hududda 170 ga yaqin kichik va 50 dan ortiq yirik dam olish maskanlari mavjud bo‘lib, ma‘lumotlarga ko‘ra, bahor va yoz oylarida 1,1 milliondan ortiq mahalliy va xorijlik sayyohlar kelgan. Ayni paytda rekreatsion zonasidagi 350 gektar



da qo‘shimcha 15 ta turistik obyekt tashkil etiladi. Yil yakuniga qadar 2700 o‘ringa mo‘ljallangan 9 ta mehmonxona, 36 ta xostel, 96 ta oilaviy mehmon uyi ochiladi va joylashtirish vositalari 974 taga, o‘rinlar soni 24700 ga yetkaziladi. Shuningdek, 18 ta ovqatlanish maskani, 40 ta savdo nuqtasi faoliyat boshlaydi. Hududda havo sharlari, parapan, osma dor yo‘li singari zamonaviy turistik xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi. Natijada 10,2 milliard so‘m qo‘shimcha soliq tushumi ta‘minlanadi. Umuman, 2026-2027-yillarda turistik-rekreatsion zonada 250 dan ortiq yangi loyiha ishga tushirilib, turizmni rivojlantirish orqali 2000 dan ko‘proq ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadi ko‘paytiriladi va budjetga 67 milliard so‘m qo‘shimcha mablag‘ tushishiga erishiladi.

Yaqinda turistik-rekreatsion zonadagi **Oqbo‘yra mahallasida “Zarra Resort”** dam olish maskani loyihasingin birinchi bosqichi yakunlanib, foydalanishga topshirildi. 7 gektar maydondagi majmua zamonaviy mehmonxona va dam olish xizmatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, keyingi bosqichlari yakunlangach, yiliga 300 ming nafargacha mehmonga xizmat ko‘rsatadi.

Ayni paytda obodonlashtirish va jihozlash

ishlari olib borilayotgan Mironqul mahallasidagi “EDELVEYS” dam olish maskani esa yiliga 420 ming sayyohga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda nafaqat dam olish, balki salomatlikni ham tiklash mumkin.

– Mazkur loyiha 50 gektar maydonni o‘z ichiga oladi va dastlabki bosqichda 34 gektar maydonda qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, – **deydi “Ohalik-Oqbo‘yra-Mironqul” turistik-rekreatsion zonasi rahbari Faridun Hotamov.** – Bu yerda ikkita katta mehmonxona, ellikdan ortiq dam olish maskanlari yozgi va qishki cho‘milish havzalari tashkil etildi. Mehmonxonalar sanatoriy tipida bo‘lib, nafas yo‘llari kasalliklarini davolash uchun zarur jihoz va bu ish davom ettirilib, har yili 10 ming tup Qrim qarag‘ayi o‘tqazilmoqda. Shu o‘yning yakuniga qadar ochilishi kutilayotgan maskanda dastlab 200 dan ortiq loyiha to‘la ishga tushgach, 800 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi. Yangi dam olish maskani tashkil etilishi bilan Mironqul mahallasi va bu yerdagi boshqa sayyohlik manzillari infratuzilmasi ham yangilandi. Jumladan, 5,5 kilometr masofada asfalt yotqizilib, plyodalar yo‘laklari tashkil etildi, shuncha masofadagi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. Ikkita ko‘priki ta‘mirlandi. Sayyohlik zonasida birinchi bosqichda amalga oshirilishi belgilangan

loyihalar shu yilning avgust oyida to‘liq ishga tushadi va so‘ngra ikkinchi bosqichga kirishamiz. Mironqul, Ohalik va Oqbo‘yra mahallalarini bog‘lovchi dor yo‘li qurilishi, paraplarda uchish va ziplayn tashkil etish ikkinchi bosqichning eng katta va asosiy loyihalari hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar uchun faol turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadida qiymati 1 million AQSh dollariga teng bo‘lgan kvadrosikl, otda sayr qilish, kamondan o‘q uzish xizmatlarini tashkil etish loyihalari ustida ish olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 10-iyunda qabul qilingan “Samarqand viloyati hududlarini kompleks rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “Ohalik-Oqbo‘yra-Mironqul” turistik-rekreatsion zonasi hududida joylashgan Samarqand davlat texnika universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga tegishli bo‘lgan oromgohlarni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufiga berib, 2026-yil oxiriga qadar belgilangan tartibda samarali foydalanish va (yoki) investorlarga realizatsiya qilish uchun bir oy muddatda “Ohalik-Oqbo‘yra-Mironqul” turistik-rekreatsion zonasi direksiyasiga o‘tkazish belgilandi. Mironqul mahallasidagi tog‘ bag‘rida joylashgan, jami 28 gektar maydonni egallagan oromgohlarining direksiyaga berilishi hududda yangi dam olish maskanlari tashkil etish va turizmni rivojlantirishga xizmat qilishi tabiiy.

Bugungi kunda Samarqand tumanidagi **Konigil va Oqbo‘yra mahallalari turizm qishlog‘i maqomiga erishgan bo‘lib**, mazkur hududlarda sayyohlik jadal rivojlanmoqda. Mazkur tarmoqda band bo‘lgan aholi soni oshib borayotir. Kelgusida **Ohalik, Mironqul** hamda **Jo‘yi Abbos** mahallalariga ham turizm qishlog‘i maqomi berilishi uchun mazkur hududlarning o‘ziga xos tarixiy ko‘rinishi, an‘ana va qadriyatlari saqlangan holda zarur infratuzilma yaratilmoqda.

G‘olib HASANOV, Alisher ISROILOV (surat).

Prezidentimiz joriy yil 18-mart kuni Narpay tumaniga tashrifi davomida bir qator tashabbuslarni ilgari surib, takliflarni bildirgandi. Berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan rejalar ishlab chiqilib, ijrosiga kirishildi.

Jumladan, sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda qo‘shimcha 61,7 million dollarlik 37 ta sanoat va xizmat ko‘rsatish loyihalari shakllantirildi. Natijada 2026-yil uchun jami 276,1 million dollarlik 59 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha 155 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirish va 2782 ta yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ushbu loyihalar ishga tushishi hisobiga yil yakuni bilan sanoat hajmi 1 trillion 598 milliard so‘mga (o‘shish sur‘ati 110,2 foiz) ga, xizmatlar hajmi 1 trillion 810 milliard so‘mga, o‘shish sur‘ati 119,8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 2 trillion 889 milliard so‘mga, o‘shish sur‘ati 110,3 foizga yetadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 trillion 438 milliard so‘mga, (o‘shish sur‘ati 105,2 foizga) hamda qurilish-pudrat ishlari hajmi 286,1 milliard so‘mga yoki 117,5 foizga o‘shishiga erishiladi.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar bilan tumanimizdagi 102 ta obyektga 397,6 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan.

Joriy yilda tumanimizda 38738 nafar aholi daromadi oshirilishi natijasida 1867 ta oilaning 7,9 ming a‘zosi-ni kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirildi. Buning uchun 1099 nafar aholi doimiy ishga joylashtirildi, 999 nafari soyadan chiqarish orqali band qilindi, 10824 nafar aholi daromadli oshirildi. 2249 ta kambag‘al oila reestrdan chiqarildi. Natijada ishsizlik darajasi yil boshiga nisbatan 4,9 foizdan 4,1 foizga, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida kambag‘allik darajasini 6,2 foizdan 2,5 foizga qisqartirildi. Yil yakuni bilan ishsizlik darajasi 3,2 foizga, kambag‘allik darajasini 2,1 foizga qisqartirish belgilangan.

2026-yilda tumanimizda eksport hajmlarini 16,3 million dollarga, shundan sanoat mahsulotlari 5,1 million dollarga va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini 11,2 million dollarga yetkazish belgilangan.

“Narpay tex” MChJ, “Elegant fiber O‘q‘tosh” MChJ, “Narpay invest” MChJ hamda qo‘shimcha qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi 3 ta korxona ishga tushishi natijasida yil yakuniga qadar eksport ko‘rsatkichlari 25 million dollarga yoki o‘tgan yilga nisbatan 200 foizga oshirish rejalashtirildi. Joriy yilning besh oyida 7,8 million dollarlik mahsulotlar xorij bozorlariga sotildi.

SAHOAT – IQTISODIYOT TAYANCHI

Raqamlarni taqqoslaydigan bo‘lsak, tumanimizda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 712,5 milliard so‘mni, 2024 yilda 1028,6 milliard so‘mni tashkil etgan. 2025-yilda sanoat hajmi 1 trillion 280 milliard so‘mni tashkil qilib, o‘shish sur‘ati 110,2 foizni, tumanning viloyatdagi ulushi 2,2 foizni tashkil etdi.

Joriy yilda sanoat hajmining 110 foizga o‘shishi ta‘minlanadi. Buning uchun qiymati 16 million dollarlik 10 ta sanoat loyihasini ishga tushirish hisobiga 122 milliard so‘mlik hajm va 298 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Misol uchun, “NARPAY OYDIN” MChJda qiymati bir million dollarlik yaxna ichimliklar ishlab chiqarishni tashkil

Yangi loyihalar iqtisodiyotimizga madad bo‘ladi

etish loyihasida qo‘shimcha 30 ta ish o‘rni yaratiladi.

Tumanda 13,1 gektar yer maydoni toifasi yer fondining boshqa toifalariga o‘zgartirilishi orqali qiymati 45,3 million dollarlik 12 ta yangi investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 463 ta yangi ish o‘rni yaratish va qo‘shimcha 65 milliard so‘mlik hajm yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Misol uchun, “Osiyo Maroqand” MChJ tomonidan qiymati 6 million dollarlik (parranda go‘shiti yetishtirish loyihasi amalga oshiriladi.

Hududlarning solishtirma ustunligidan kelib chiqib, 2026-2027-yillarda mahallalarning infratuzilmaviy loyihalari uchun jami 397,6 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi. Buning natijasida tumanda faoliyat olib borayotgan qurilish korxonalarining ulushi 15 foizga oshiriladi. Past quvvatda ishlayotgan 5 ta kichik korxonaning muammoli masalarini hal etish hisobiga qo‘shimcha 5,8 milliard so‘mlik hajm yaratiladi.

XIZMAT KO‘RSATISH – QULAY YO‘NALISH

2026-yilda qiymati 123,5 million dollarlik 30 ta xizmat ko‘rsatish loyihasini ishga tushirish hisobiga 48 milliard so‘mlik hajm va 1426 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Misol uchun, “ORIENT HUB” MChJ tomonidan qiymati 7,9 million dollarlik logistika markazi tashkil etiladi.

Tumanda yo‘l bo‘yi xizmat ko‘rsatish sohasida drayver loyihalar aniqlanib, qiymati 53,5 million dollarlik 11 ta investitsiya loyihasi tanlab olindi hamda ular doirasida 463 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Misol uchun, “Narpay agro hamkor” MChJ tomonidan qiymati 6 million dollarlik zamonaviy xizmat ko‘rsatish markazi tashkil etiladi.

M-37 xalqaro avtomobil yo‘lida xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish hisobiga qiymati 16,4 milliard so‘mlik 25 ta yangi loyihani amalga oshirib, 60 ta yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tumanning temiryo‘l bo‘yi hududidan 100 gektar yer maydonida “Maxsus sanoat” zonasini tashkil qilish bo‘yicha takliflar berildi va natijada 500 million dollarlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishi belgilandi. Shuningdek, bugungi kunda “Maxsus sanoat” zonasini infratuzilmalar bilan ta‘minlash yuzasidan takliflar taqdim qilindi va loyiha smeta ishlari uchun mahalliy budget hisobidan 98,5 million so‘m mablag‘ ajratildi. Mahalla yettilligi tomonidan qiymati 102,9 milliard so‘mlik 117 ta kichik va o‘rta loyihalar amalga oshirilib, 561 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Sanoat zonalarida (4 ta sanoat zonasida) 6,8 gektar yer maydonini auksionga chiqarish orqali qiymati 12,8 million dollarlik 13 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 20,1 milliard so‘mlik sanoat hajmi, budjetga qo‘shimcha 1,1 milliard so‘m tushum hamda 210 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Misol uchun, “Narpay musaffo osmon” MChJ tomonidan qiymati 2 million dollarlik yog‘ ishlab chiqarish loyihasi amalga oshiriladi.

“Narpay texnologiyasi” asosida issiqxonalar faoliyati uchun sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilmogda.

Jumladan, “Agrobank”ga qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun bank-moliya xizmatlari, davlat xizmatlari va qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellektga asoslangan “aqlli” yechimlarga ixtisoslashgan ilova (superapp) yaratilishi yuklatilganligi natijasida ushbu ilovadan foydalangan holda issiqxona xo‘jaliklari faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Issiqxona xo‘jaliklarida iqlim nazorati, aqlli sug‘orish va o‘g‘itlash texnologiyalarini joriy etish hosildorlikni 2-3 barobarga oshiradi.

Tashrifda berilgan topshiriq ijrosi yuzasidan 25 ta mahalla qulupnaychilikka, 28 ta mahalla parrandachilikka ixtisoslashtiriladi. Buning uchun birinchi bosqichda 53 ta mahallaning 19 tasi yoki 36 foizi ixtisoslashtiriladi. 25 ta mahalladan 7 tasi yoki 28 foizi qulupnaychilikka, 28 ta mahalladan 12 tasi yoki 43 foizi parrandachilikka ixtisoslashtiriladi. Yana tuman markazi Nog‘oraxona mahallasida joylashgan 2 qavatli binoda “Tomorqa maktabi” tashkil qilinadi.

Talabgorlari aniqlangan 7 ta (Ko‘k ota, Oq oltin, Toshko‘prik, Xo‘jaqo‘rg‘on, Chaykal, Chorbog‘, Beklar) mahallalaridagi jami 275 ta kambag‘al oilaning 200 tasining yoki 73 foizi xonadonida qulupnaychilik tashkil qilinadi. Buning uchun tijorat banklari tomonidan yanvar-may oylarida 72 nafar fuqaroga 2,415 million so‘m kredit ajratilib, issiqxona tashkil qilindi.

Bundan tashqari, “Maroqand sifat” klasteri tomonidan issiqxona yo‘nalishida reestrdan turgan 100 nafar oila ro‘yxati shakllantirilib, 10 nafariga zamonaviy issiqxonalar qurilib, qulupnay ekishi uchun tayyorlab berilmoqda.

Parrandachilik yo‘nalishida birinchi bosqichda 12 nafar talabgor aniqlandi. Guliston, Sohikbor, Haqiqat, Charxin, Ipak yo‘li, Qoziyoqli, Mushkent, Obihayot, Olti o‘g‘il, Tepa, Muqimiy mahallalaridagi 391 ta kambag‘al oilaning 200 tasi yoki 51 foizi xonadonida parrandachilik tashkil qilinib, aholining o‘rtacha daromadi 11 million so‘mdan 25,6 million so‘mga oshirildi. Bugungi kunda, 85 ming bosh parranda boqish uchun “Navobod parranda” MChJ bilan 25 ta shartnoma tuzilib, 15 ming bosh parranda boqilmoqda. Tijorat banklari tomonidan 9 nafar fuqaroga 145 million so‘m kredit ajratilib, parrandachilik yo‘nalishi tashkil qilindi.

CHORVACHILIK – DAROMADLI YO‘NALISH

Yangiariq, Umid, Tortuvli, Qoziyoqli, Olti o‘g‘il mahallalaridagi 318 ta kambag‘al oilaning 155 tasining yoki 49 foizi xonadonida kooperatsiya usulida chorvachilik tashkil qilinadi. Bunda, “Salomatlik” MChJga sut sotib olish yo‘nalishi bog‘lanadi. Bugungi kunga qadar “Maroqand sifat” klasteri tomonidan 5 mahalladagi 21 ta kambag‘al oilaga ona-bola sigirlar tarqatildi.

Tijorat banklari tomonidan 320 nafar fuqaroga 5,643 million so‘m kredit ajratilib, chorvachilik yo‘nalishi tashkil qilindi.

Sherali ALIYEV, Narpay tumani hokimining birinchi o‘rinbosari.



SUV! SUV!



Bu Oqdaryodagi daraxtlar nidosi

Oqdaryo tumanida “Yashil makon” dasturi doirasida yo‘l bo‘ylari, dam olish maskanlari, xiyobonlarda manzarali daraxt ko‘chatlari, boshqa alohida maydonlarga mevali daraxt ko‘chatlari ekilmoqda.

Masalan, joriy yil bahorda tumanning Uzunqishloq mahallasidagi 15 gektar maydonda tumandagi korxona-tashkilotlar tomonidan 30 ming tup mevali daraxt ko‘chatlari ekilib, parvarishi uchun mas‘ullar belgilangan. Amir Temur mahallasida yoshlar uchun ajratilgan 6 gektar maydonda shaftoli bog‘i tashkil etilibdi. Yer olgan yoshlar ko‘chatlarni parvarish qiladi, qator orasida ekin ekib oladi. Bu juda yaxshi tashabbus, ammo tuman markaziga yaqin hududga ekilgan bir yillik archa ko‘chatlari qarovsizlikdan qurib qolmoqda. Shundoqqina tuman hokimligi oldidagi bir necha yillik archalar esa kasallik tufayli sarg‘ayib bormoqda.

Ma‘lumot uchun, Oqdaryo tumanida 2026-yil bahor mavsumida 360 ming tup ko‘chat ekilib, ro‘yxatga olingan. O‘.XUDOYBERDIYEV.



Yoshlar yozgi ta'tilni qanday o'tkazyapti?

Umumta'lim muassasalari o'quvchilari hamda mahalla yoshlarining yozgi ta'til davrida bo'sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida "Dolzarb 90 kun" dasturi doirasida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual o'yinlar va sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Samarqand shahridagi 42-maktabda tashkil qilingan "Quvnoq bolalik" nomli kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohida 7-12 yoshli bolalar uchun har kuni soat 08:00 dan 12:00 gacha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. O'quvchilar ijod va mehnat, kompyuter savodxonligi, teatr, mohir qo'llar, kitobxonlik, yosh musavvirlar, musiqa va sport to'garaklarida qatnashib, iste'dodlarini namoyon etishmoqda.

– Ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, – deydi 42-maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Umida Najimova. – Oromgohda har bir bola o'z qobiliyatini namoyon etishi, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Turli sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar va qiziqarli to'garaklar o'quvchilarning bo'sh vaqti chog' o'tishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, oromgoh bolalarga nafaqat quvonch va yaxshi taassurotlar bag'ishlamoqda, balki ularning har tomonlama kamol topishi, dunyo-

qarashi kengayishi va yangi bilimlarni egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Binobarin, "Dolzarb 90 kun" dasturiga ko'ra, viloyatdagi 31 ta sport muassasasida, shuningdek, Jomboy tumani sport maktabi tasarrufidagi ikkita sport inshootida 19 ta sport turi bo'yicha qo'shimcha to'garaklar tashkil etilgan. Sport maktabi direktori vazifasini bajaruvchi Sirojiddin Eshmurodovning ma'lum qilishicha, muassasada 4 ta sog'lomlashtirish, 88 ta boshlang'ich tayyorlov hamda 25 ta o'quv-mashg'ulot guruhi faoliyat yuritmoqda. Ushbu guruhlarda 42 nafar malakali trener qo'l ostida 1580 nafar o'g'il-qiz shug'ullanmoqda.

– "Yoz-2026" sport musobaqalari dasturi doirasida turli sport tadbirlari va musobaqalarini muntazam tashkil etib kelyapmiz, – deydi sport maktabi murabbiyi Olim Mamasoliyev. – Bu mashg'ulotlar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning jismoniy salohiyatini oshirish bilan birga, iqtidorli sportchilarni aniqlab, sport maktabiga jalb etish imkonini ham bermoqda.

– Yozgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ingliz tili kursida tahsil olyapman, tushdan keyin esa futbol to'garagida mashg'ulotlarda qatnashyapman, – deydi tumandagi 21-maktab o'quvchisi Behruz Zokirov. – Mashg'ulotlar qiziqarli o'tmoqda va turli musobaqalarda qatnashib, o'z imkoniyatlarimizni sinab ko'ryapmiz. Kelgusida yuqori natijalarga erishib, respublika va xalqaro klublar safida to'p surishni maqsad qilganman.

Yasmina ESHONQULOVA.

O'z vaqtida murojaat etilsa, davolasa bo'ladi

Har yili 26-iyun sanasi dunyo miqyosida Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu sana Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan jamiyatni giyohvandlik balosining xavfli oqibatlaridan ogoh etish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida belgilangan.

Giyohvandlik insoniyat oldida turgan eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. U nafaqat inson salomatligiga, balki oila farovonligi, jamiyat barqarorligi va mamlakat taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Giyohvand moddalarga qaramlik insonning jismoniy va ruhiy holatini izdan chiqarib, uning hayot sifati pasayishiga olib keladi.

Bugungi kunda giyohvandlikka qarshi kurash davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning hamkorligini taqozo etadi. Ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, ilm-fan va ijodga jalb qilish orqali bu illatning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, kuzatuvlarimizga ko'ra, ko'p hollarda ota-onasidan uzoq yashaydigan, bobo-buvilari, qarindoshlari qo'lida qolgan o'smir yoshlar o'rtasida ko'proq shunday salbiy holatlar uchramoqda.

Giyohvandlikning oldini olishda oila muhiti hal qiluvchi o'rin tutadi. Farzandlar bilan samimiy muloqot qilish, ularning qiziqishlari va muammolariga befarq bo'lmalik, to'g'ri hayotiy qadriyatlarini shakllantirish kelajak avlodni turli zararli odatlardan asrashga xizmat qiladi. Bola o'z-o'zidan asabiy bo'lib qolsa, gap yoqmasa, uydan chiqib ketish holatlari ko'paysa, otionalar hushyor tortishlari lozim.


To'g'ri, bugun markazimizda giyohvandlikka chalingan fuqarolarni davolashda yangi, zamonaviy usullar qo'llanilmoqda, agar o'z



vaqtida murojaat etilsa, davolash samaradorligi 80 foizga yetdi.

Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan yurtimizda ham turli ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, sport musobaqalari va targ'ibot aksiyalari tashkil etilmoqda. Bu kabi tashabbuslar aholi o'rtasida giyohvandlikning zarari haqidagi bilimlarni oshirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Baxtiyor QUDRATOV,
respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy-salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo'yicha viloyat filiali oliy toifali shifokori.



Pedagog olim, tashabbuskor rahbar edi

Dunyoda shunday insonlar yashab o'tganki, ular qoldirgan ilmiy meros, tarbiyalagan shogirdlar vaqt o'tgani sayin yanada qadrliroq bo'lib boraveradi. Boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilishga umrini baxsh etgan zahmatkash olim, tashabbuskor rahbar Faxriddin Shodiyev ana shunday insonlardan biri.

F.Shodiyev 1966-yil 17-iyulda Xatirchi tumani Jizmonsoy qishlog'ida, ziyoli oilada dunyoga keldi. Boshlang'ich va o'rta ta'limni qishlog'ida 24-o'rta maktabda oldi. Bolaligidan adabiyotga mehr qo'ydi. Bu qiziqish uni 1984-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga yetakladi.

Talabalik yillari bo'lajak olim uchun haqiqiy toblanish davri bo'ldi. U o'z davrining zabardast olimlari – professor Xudoyberdi Doniyorov va professor Nuriddin Shukurov yaratgan ilmiy muhitda ta'lim oldi. Yosh yigitning keng tafakkuri va mehnatsevarligini ko'rgan ustozlari uni hali universitetni bitirmasidan umumiy tilshunoslik kafedrasiga katta laborant vazifasiga ishga qabul qilishdi.

1991-yilda universitetni bitirgan F.Shodiyev boshlang'ich sinflarda tillar va adabiyot kafedrasida o'qituvchisi bo'lib ishladi. 16 yil mobaynida boshlang'ich ta'limning metodik poydevorini chuqur o'rganib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. 2007-2009-yillarda mazkur kafedraning katta o'qituvchisi sifatida oliy ta'lim uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda faol qatnashdi. Pedagogika fakulteti dekanining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri vazifalarida mehnat qildi.

2025-yildan umrining oxirigacha yangi tashkil etilgan Samarqand davlat pedagogika institutining boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasida mudiri sifatida faoliyat yuritdi.

Faxriddin Shodiyev o'zbek tilshunosligi va boshlang'ich ta'lim metodikasi sohasida olib borgan tadqiqotlari filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi va Oliy attestatsiya komissiyasi



tomonidan berilgan dotsent ilmiy unvoni bilan e'tirof etildi.

Olimning boy ilmiy merosi bugungi kunda 100 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop, uslubiy va badiiy ishlarni o'z ichiga oladi. Uning "Hozirgi o'zbek tili bir bo'g'inli so'zlarining lisoniy tadqiqi" nomli monografiyasi o'zbek tili leksikologiyasi va fonetikasi sohasida katta ilmiy voqeaga aylandi. Muallif turkiy tillar, xususan, o'zbek tilining evolyusiyasida bir bo'g'inli so'zlarning semantik va morfologik xususiyatlarini chuqur ochib berdi.

Bundan tashqari, u oliy va professional ta'lim tizimi uchun "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi", "Ona tili" darsliklarini, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar uchun "Boshlang'ich ta'lim fanlar nazariyasi", "Ona tili o'qitish metodologiyasi" nomli o'quv qo'llanmalarini yaratdi.

Afsuski, beshafqat o'lim fidoyi olim, mehribon ustoz va samimiy inson Faxriddin Shodiyevni oramizdan erta olib ketdi. Biroq ustoz yaratgan darsliklar, tarbiyalagan shogirdlari sohaning salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ustozning boy tajribasi, tashkilotchilik mahorati va ilm-fanga bo'lgan yuksak sadoqati kelgusi avlodlar uchun hamisha ibrat namunasi bo'lib qoladi. Pedagog sifatida amalga oshirgan xayrli ishlari hamkasblari, shogirdlar qalbida yashaydi.

Sh.NEGMATOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti rektori, professor.
G.RAHIMOVA,
professor.
O.GADOYEV,
dotsent.

REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

MDF ESHIKLAR SOTILADI!

Samarqand viloyati ko'p funksional inklyuziv-resurs maktabi binosida rekonstruksiya ishlari olib borilayotganligi munosabati bilan demontaj ishlari natijasida bo'shagan, avval foydalanilgan MDF eshiklar, alyumin profildan tayyorlangan eshik va deraza romlari hamda old taxtalar belgilangan tartibda sotuvga qo'yilmoqda.

Manzil: Samarqand shahri, Abdurahmon Jomiy mahallasi Amir Shohmurod ko'chasi, 50-uy.

Murojaat uchun telefon: (+99891) 556-83-20.

DA'VOLAR BO'LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Boqiyev Oktyabrga (2002-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin

Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Azizova Qanoat Razzoqovnaga (2025-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Ashurov Amonkulga (2010-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Akilov Furkat Marupovichga (2023-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Urunova Xolmoma (2020-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kurbanov Xamrakulga (2023-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Saydanfazov Mustafo G'aniyevichga (2025-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat

bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Abduraupova Zaynab Ximmatovnaga (2025-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasida marhum Xo'janov Alimjon Xayrullayevichga (2021-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani "Alisher Navoiy" MFY, Amir Temur ko'chasi.

BEKOR QILINADI!

Samarqand shahridagi "SAMARKAND BUILDING MATERIAL" oilaviy korxonasining (STIR: 306044676) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Amir TEMUR TURON

davlatini qanday boshqargan?

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy yurishlari orasida Qunduzcha jangi alohida ajralib turadi. Bu jang Amir Temur qoʻshini bilan Oltin Oʻrda xoni Toʻxta-mishxon oʻrtasida 1391-yil 18-iyunda hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oraligʻida, Volga daryosining sharqiy sohilida joylashgan Qunduzcha mavzeida sodir boʻlgan.

U oʻrta asrlardagi eng yirik janglardan hisoblanadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Toʻxtamishxon qoʻshini Amir Temurnikidan ancha koʻp boʻlgan. Amir Temur qoʻshinida 200 ming askar bor edi. Qunduzcha jangida har ikki tomondan 500 mingga yaqin jangchi ishtirok etgan. Amir Temur qoʻshinlarini anʼanaviy tartib — markaz, soʻl va oʻng qanot holidan oʻzgacha tartibda tuzishga ahd qiladi va jangovar tartibning yangi usulini qoʻllaydi, qoʻshin 7 qoʻlga taqsim etiladi. Markazdagi qoʻlga amalda amir Sulaymonshoh qoʻmondon boʻlgan. Uning ortidan Muhammad Sulton bosh boʻlgan qoʻl joylashgan, bu qoʻl ketidan Sohibqiron qoʻl ostida boʻlgan 20 qoʻshin (boʻluk) xaziradagi qism sifatida borgan. Barongʻarga Mironshoh Mirzo, qunbul (qanot)ga amir Xoji Sayfiddin barlos, juvongʻarga Umarshayx Mirzo, unga qunbul sifatida amir Berdibek, Saribugʻo qoʻllari joylashgan. Oʻgʻruq va xazira qismlariga qoʻmondonlikni Amir Temur oʻz zimmasiga olgan. Uning qoʻshini markaz ortida boʻlib, kim yordamga muhtoj boʻlsa, oʻshanga koʻmak yuborishga tayyor turgan. Keyinchalik maʼlum boʻlishicha, jang taqdirini ushbu harbiy qism hal etgan. Toʻxtamishxon qoʻshinni 5 qoʻlga taqsimlab, ularga Joʻji xonadoniga mansub shahzodalar hamda eng oliy darajadagi amirlarni qoʻmondon qilib tayinlaydi.

Jang kuni erta tongda (18-iyun) Amir Temur qoʻshini koʻz oʻngida otdan tushib, Allohdan madad tilab, ikki rakaat namoz oʻqigan. Bayroq va tugʻlarni koʻtargan qoʻshin nogʻora chalib, suron aytib, ularni jang karnaylari sadolari ostida jangni boshlaydilar. Umarshayx qoʻmondonligi ostidagi soʻl qanot Toʻxtamishxon tomonidan berilgan zarba natijasida mushkul ahvolda qoladi, raqib qoʻshini soʻl qanotni yorib oʻtib orqa tomondan hujum uyushtirishga erishadi. Amir Temur bu paytda dushmanning asosiy qismini taʼqib etmoqda edi, lekin u xaziradagi qism bilan oʻzining soʻl qanotiga yordamga keladi va dushman uloqitirib tashlanadi. Shundan soʻng Toʻxtamishxon asosiy zarbani Shayx Temur Suldaz rahbarligidagi qismlarga qaratadi va uning favjini yakson etib oʻrtani yorib chiqadi, lekin qarshisidan Umarshayx Mirzo qoʻshini chiqib muhorabaga kirishadi. Shu tariqa Hoji Sayfiddin barlos boshchiligidagi qanot qoʻshinlari gʻanimning juvangʻariga hujum qilishi boshlanadi, bu hujum dushman juvangʻari qoʻl qarshiligini sindiradi. Toʻxtamishxon Hoji Sayfiddinga qarshi kuch tashlaydi, biroq ularga qarshi amir Jahonshoh qismi tashlanadi. Shayx Temur Suldaz qatorlarining yorib oʻtishi ham toʻxtatilgan.

Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, Toʻxtamishxon qoʻshinining bir qismi ikki lashkarboshi oʻrtasida chiqqan nizo tufayli jang maydonidan qochgan. Qunduzcha jangi Sohibqiron foydasiga hal boʻlgan. Toʻxtamishxon qochgan, uning ketidan amirlar, sardorlar va qolgan-qutgan qoʻshini ham ergashgan. Amir Temur nihoyat otdan tushib Allohga hamdu sano aytgan. Amir Temur har oʻn otligidan yettitasini dushmanni taʼqib etishga yoʻnatgan. Volga daryosigacha taʼqib etilgan Oltin Oʻrda jangchilari oʻldirilgan yoxud asir olingan. Jangdan keyin bir oyga yaqin dam olgan Amir Temur katta oʻlja bilan Movarounnahrqa qaytgan.

Mazkur birgina jang misolida buyuk Amir Temurning sarkardalik mahorati va harbiy sanʼatini bilib olish mumkin. Bu jang jahon harbiy sanʼati rivojiga katta hissa qoʻshgan Amir Temur va temuriylarning harbiy sanʼati naqadar mukammal boʻlganligidan dalolat beradi. Bu holat mutaxassislar va keyingi davr sarkardalari tomonidan haqli ravishda eʼtirof etilgan.

Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Amir Temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qoʻshin qismlarini odilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yoʻllashga, mavjud toʻsiq va gʻovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qoʻshindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va temuriylar armiyasi chorvadorlar qatori hunarmandchilik va dehqonchilik bilan mashgʻul oʻtroq aholidan ham askar toʻplagan. Qoʻshinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan boʻlib armiyaga oʻt sochar



qurol — toʻp (raʼd)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzhan, farangi, qozon) keng yoyildi. Togʻli hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va boʻlinmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchi boʻlib qoʻshinni jang maydonida anʼanaviy 5 boʻlakdan farqli ravishda 7 qoʻlga boʻlib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik Toʻxtamishxon, Shayboniyxon singari turkiy sarkardalar tomonidan oʻzlashtirilgan va rivojlantirilgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qoʻshinida ayollardan iborat maxsus boʻlinmalar boʻlib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, janglarda qahramonlik va matonat namunalari koʻrsatgan.

Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, oʻz vaqtining ilgʻor qurol va texnikasi bilan taʼminlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tugʻlari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qoʻshinni boshqarishda qoʻl kelgan. Dushman muhofazasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qoʻqqisidan zarba berish, qalʼa, qoʻrgʻon va hisorlarning uzooq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng koʻlamda qurshab olib qishloq, shahar, tuman va viloyatlarni birin-ketin zabt etib, dushmanni batamom yakson etgungacha taʼqib qilish, taslim boʻlgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va uning vorislariga koʻplab zafarlar olib kelgan. Taktika jihatidan Amir Temur armiyasi oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻlgan. Razvedka aʼlo darajada yoʻlga qoʻyilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur chora va tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. Oʻnlik, yuzlik, minglik va tuman qoʻmondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qoʻmondon masʼul hisoblangan.

Sohibqironning harbiy sanʼat rivojiga qoʻshgan ulkan xizmatlaridan yana biri - jang paytida qoʻshin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va oʻz navbatida, gʻanim kuchlarini yon tomondan aylanib oʻtib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — qunbulning joriy etilishi boʻlgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qoʻshinida boʻlmagan. Shayboniyxon armiyasida bunday qism mavjud edi va u toʻlgʻama atamasi bilan nomlangan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qoʻshini jangda quyidagicha tartibda kirgan: dushman bilan dastlabki toʻqnashuvni aygʻoqchilik bilan mashgʻul boʻlgan qorovul boshlab borgan. Shundan soʻng oʻng va chap qanot ilgʻor qismlari — barangʻor hiravuli va juvangʻor hiravuli madadida asosiy ilgʻor qism — manglay jangga kirgan. Manglay ortidan barangʻor hamda juvangʻorning qolgan ikki boʻlagi — chapavul va shagʻavul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni magʻlub etishga kifoya qilmasa, bosh qoʻmondon (amir ul-umaro) boshchiligidagi markaz (qoʻl) (gʻoʻl) hal qiluvchi hujumga tashlangan.

Sohibqiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha boʻlgan: qoʻshin markazi 40 boʻluk - polkka taqsimlangan va oliy bosh qoʻmondonga itoat qilgan. Ushbu boʻluklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 boʻluki safning birinchi qatorida, qolgan 28 boʻluki ikkinchi va uchinchi qatorlarda joylashgan. Qirq boʻlurning oʻng tarafi oldida amirzodalar qismlari, soʻl tarafi oldida qarindoshlar va ittifoqchilar qismlari saf torgan. Ikkinchi qatorning barangʻorida 6 boʻluk oʻz ilgʻori — hirovul bilan oʻrin egallagan. Ayni shu miqdordagi boʻluk va hirovulga juvangʻor ham ega boʻlgan.

Ikkinchi qator barangʻori va juvangʻori oldida yuqoridagi tartibda birinchi qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilgʻor — manglay (yoki hirovuli buzurg) harakatda boʻlgan. Yengil suvoriylardan iborat ikki boʻluk armiyani qoʻqqisidan boʻladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band boʻlgan.

Temuriylarga koʻplab zafarlar keltirgan bu harbiy tartib keyingi davrlarda mintaqani boshqargan shayboniylar, ashtarxoniylar, mangʻitlar, qoʻngʻirotlar va minglar sulolalari davrida ancha oʻzgarishlarga duch kelgan.

Qahramon RAJABOV, tarix fanlari doktori, professor.

Roziq uyga qaytgach, qishlogʻini tanimay qoldi. Bolaligida-gi pastqam uylar, yozda chang, qishda loy koʻchalardan asar ham qolmabdi. Keng, ravon asfalt yoʻl, chiroyli binolar, hashamatli madaniyat saroyi, uch qavatli maktab, bogʻcha, shifoxona shahardan qolishmasdi. Oʻttiz yil ichida shuncha oʻzgarishlar. Ayniqsa, odamlarning muomalasi, odobi, odamiyligi uni hayratga soldi: «Nahotki, bu oʻzi tugʻilib oʻsgan qishloq boʻlsa?».

Uka, shu yerda saqlang! - u qabriston yonidan oʻtayotganda haydovchidan iltimos qildi. Yoʻl-yoʻlakay mashinasiga chiqqan, koʻzoynak taqqan, soqol-moʻylovli bu ajnabiy odamga qarab Olimjon hayron boʻlib mashinani toʻxtatdi: «Gʻalati odam ekan, qabristonda nima qiladi?».

Roziq choʻntagidan pul chiqarib uzatdi: - Yetadimi? - Kerak emas, mehmon ekansiz, duo qilib qoʻysangiz boʻldi.

Roziq Olimjonga hayron boʻlib qaradi: - Xoʻp, rahmat, yoʻlingiz bexatar boʻlsin!

...Gʻalati yigit ekan, xorijda boʻlsa, gʻing demay olardi:

- Qabristonni koʻrib uning hayrati yanada oshdi. U bolaligida bilgan qovjiragan oʻt-oʻlan bilan qoplangan qabristondan asar qolmagan, atrof supirib-sidirilgan, qabrlar ustiga yodgorliklar oʻrnatilgan.

- Keling, mehmon! - qabriston qorovuli Roziqqa ajablaniib qaradi. - Ziyoratga kelibsiz-da, yaqinlaringiz dafn etilganmi? - Ha, otam, onam dafn etilgan. Ammo men qabrlarini bilmayman. Oʻttiz yil oldin ularni tashlab xorijga ketgandim. Ammo ishim yurishmadi, xor-zor boʻlib, sogʻligʻimdan ayrilib, mana, yurtimga qaytdim.

- E, shoshmang, shoshmang, siz Alijon boboning Amerikaga ketgan oʻgʻli Roziqmasmisiz? - Hamro bobo unga razm soldi.

- Ha, men oʻsha Roziqman! Keksa ota-onasini qon qaqshatib, boylik orttirish ilinjida yurtini tashlab ketgan nobakor oʻgʻilman. Otam va onamning qabrini koʻrsating, xokini koʻzimga surtib kechirim soʻray, shoyad ruhlari afv etsin.

Hamro bobo Roziqni ergashtirib otasi Ali buva va kampiri Sora momo dafn qilingan qabrlarga boshlab bordi. Qurʼon tilovat qilib

► **Turmush chorrahalarida**

divanga oʻzini tashlar, tun buyi tashqaridagi toʻs-toʻpolon otishmalarni eshitib, mijja qoqmasdan chiqardi. Ertalab kimningdir xonadonini oʻgʻri urgani, kimnidir oʻldirib ketilganini eshitib dahshatga tushardi. Vatanga qaytgach, bu yerdagi manzarani koʻrib xuddi shirin tush koʻrayotgan-ga oʻxshardi: hammayoq tinchosoyishta, odamlar ahil-inoq, har kuni toʻy-tomosha. Toʻqchilikdan kayfiyatlar chogʻi, hamma taqdirdan minnatdor, bunyodkorlik bilan band.

...Roziq ogʻir oʻkinch xotiralardan bir zum toʻxtab, yana qabr-ristonga koʻz yugurtirdi, toza, orasta. «Hoynahoy, Hamro boboning xizmati, yaxshi maosh toʻlashsa kerak».

Roziq qoravulxonaga qaytdi. Hamro bobo bilan ancha gurunlashib oʻtirdi. Bobo oʻtganlar xotirasiga tilovat qilgach, izn surab oʻrnidan turdi. Choʻntagidan pul chiqarib uzatdi. Hamma narsa pul bilan oʻlchanadigan yurtda musofir yigit Vatani, odamgarchilik, milliy urf-odatlar, oʻlmas qadriyatlar, savob degan tuygʻularni unutgan edi.

- Eh, oʻgʻlim-a, musofirlik-da shuncha yil yashab, haliyam koʻzingiz ochilmabdi. Pulingizni koʻntangizga solib qoʻying. Men bu yerda pul uchun yurganim yoʻq. Xudoga shukur pensiyam yetadi. Marhumlarning ruhi shod boʻlsin deyman. Vaqti qazo yetib, dunyodan oʻtamiz. Qabrimiz unutilib, oyoq-osti boʻlmasligi uchun tiriklar qaygʻurishi kerak. Bu eng katta savob, bolam! Agar savob olmoqchi boʻlsangiz, ataganingizni xayriya qutisiga tashlay qoling. **Togʻaymurod SHOMURODOV.**

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

15-IYUL

Inoyatulla SUVONQULOV - (1934-2012) Jizzax viloyati Gʻallaorol tumanida tugʻilgan. Filologiya fanlari doktori.

Zulfiya MOʻMIANOVA - 1959-yilda Narpay tumanida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, shoira.

19-IYUL

Damir SALIMOV – 1937-yilda Samarqand shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq artisti.

20-IYUL

Mahmud SAʼDIY - (1939-2019) Narpay tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan jurnalist, publitsist va muharrir. **Erkin QAYTAROV** – 1958-yilda Payariq tumanida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist.

22-IYUL

Saidali MIRZAYEV – 1939-yilda Samarqand shahrida tugʻilgan. Ganchkor. Oʻzbekiston xalq ustasi.

30-IYUL

Oydinniso HAMROYEVA – 1952-yilda Kattaqoʻrgʻon tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston Respublikasi xalq oʻqituvchisi.



Odamlarni maʼnaviy malhamdan mahrum qilmaslik lozim

Keksalikning gashtli va sinovli kunlarimda ortga – oʻtgan hayot yoʻlimga nazar solarkanman koʻrganlarim kino tasmlariday qayta gavdalana-di. Esimdan sira chiqmaydi, talabalik yillarim, rayon va oblast partiya qoʻmtalarida mehnat qilgan kezarimda odamlar matbuotga juda havasmand edi. Har kuni ertalab gazeta doʻkoni oldiga borsam hozirgina tandirdan uzilganday boʻyoq hidi anqib turgan gazetalarini xarid qilayotgan tumanot odamni koʻrardim. Ular oʻzlarini qiziqtirgan gazetalarini xarid qilar va havas bilan oʻqirdi. Trolleybus, avtobuslarda ham yoʻlovchilar gazeta, jurnal oʻqiyotganiga koʻzingiz tushardi.

Samarqand shahrining har 2-3 kilometrida odamlar gavjum joylarda soyuzpechat boʻlardi. Bugun shunday azim shaharda sanoqli kioskalor boʻlib, unda ham turli ash-qol-dashqollar orasida gaze-ta-jurnallar zoʻrgʻa koʻrinadi.

Matbuot havasmandlari ham juda kam, asosan katta yoshlilar. Ular ham oʻzlariga kerakli nishrlarni topolmay qaytishadi. Oʻylab oʻymiga yetolmayman. Nega odamlar gazeta-jurnal oʻqimay qoʻydi?

Yaqinda avtobus kutib turganimda bekatdagi odamlarga razm soldim. Hammaning qoʻlida telefon. Kimdir qoʻshiq, kimdir qisqa videolar tomosha qilib, bir-birlariga koʻrsatib hir-inglashadi. Ayniqsa, qizlarning telefonda bekorchi narsalarni koʻrib, oʻzlarini tutishlari juda xunuk koʻrindi.

Yoshim saksonga yaqinlashib qolgan boʻlsa ham bir kun gazeta oʻqimasam oʻsha kuni nimanidir yoʻqotgandek boʻlaman. Bugun har qadamda dorixon. Jisimimizga malham uchun bular ham kerakdir. Ammo odamlarni maʼnaviy malhamdan mahrum qilmaslik lozim.

Yunus MUXTOROV, mehnat faxriysi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 297 nusxada chop etildi. Buyurtma 272. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56
BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda